

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TERMIZ IQTISODIYOT VA SERVIS UNIVERSITETI**

**"TASDIQLAYMANI"**  
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
rektor *[Signature]* A. Saifarov  
2024-yil "



**PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA KAFEDRASI  
"GAZLAMALAR MATERIALSHUNOSLIGI"**

**FANIDAN**

**O'QUV DASTURI**

|                    |           |                   |
|--------------------|-----------|-------------------|
| Bilim sohasi       | 100000    | - Gumanitar       |
| Ta'lim sohasi:     | 110000    | - Pedagogika      |
| Ta'lim yo'nalishi: | 60111300- | Texnologik ta'lim |

**Termiz – 2024**

**Modul / FAN DASTURI**  
**Pedagogika va ijtimoiy gumanitar fanlar fakulteti**  
 60111300- Texnologik ta'lim

|                            |                                  |                                     |                                   |                           |
|----------------------------|----------------------------------|-------------------------------------|-----------------------------------|---------------------------|
| Fan/modul kodi<br>GMB101   | O'quv yili<br>2024-2025          | Semestr<br>1                        | ECTS – Kreditlar<br>5             |                           |
| Fan/mavzu turi<br>Majburiy | Ta'lim tili<br>O'zbek            |                                     | Haftadagi dars soatlari<br>6 soat |                           |
| I.                         | Fanning nomi                     | Auditoriya<br>mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil<br>ta'lim (soat)         | Jami<br>yuklama<br>(soat) |
|                            | Gazlamalar<br>materialshunosligi | 22                                  | 128                               | 150                       |

| <b>Fan maqsadi (FM)</b> |   |
|-------------------------|---|
| <b>FMI</b>              | Fanni o'qitishdan maqsad – bo'lajak texnologiya ta'limi o'qituvchilarini o'z kasbining mohir ustasi qilib tarbiyalashda talabalarga tola, ip va gazlamalarning asosiy xususiyatlarini, xossalarni o'rgatish, tikuvchilik materiallarini ishlab chiqarish texnologiyasi to'g'risida bilim berishdan iborat.  |
| <b>FVI</b>              | Fanning vazifasi – fan va ta'lim integratsiyasi mazmun mohiyatidan kelib chiqqan holda tolalarning tuzilishi va olinishi, gazlamalarning tolaviy tarkibini, o'rilish usullarini, assortimentini, fizik-mexanik xususiyatlarini, tikuvchilik materiallarining turlari va xususiyatlarini zamonaviy ilmiy, amaliy yutuqlar asosida o'rgatishdan iborat. |

**II. Fanning nazariy qismi (ma'ruza mashg'ulotlari)**

**II.I Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi**

**1-mavzu. To'qimachilik tolalari haqida umumiy ma'lumotlar.**

Kirish. "Gazlamalar materialshunosligi" fanining predmeti. Tolalarning tasnifi. Tolalarning olinishi va tuzilishi. Tolalarning tarkibi.

**2-mavzu. Tabiiy va kimyoviy tolalar haqida umumiy ma'lumotlar.**

Tabiiy tolalarning tuzilishi, olinishi va xossalari. Kimyoviy tolalarning olinishi, tuzilishi va xossalari.

**3-mavzu. To'qimachilik tolalarining fizik xossalari.**

Tolalarning gigroskopiklik, issiqlik, optik va elektr xossalari.

**4-mavzu. To'qimachilik iplari haqida umumiy ma'lumotlar.**

Iplarning olinishi va tuzilishi. Iplarning fizik-mexanik xossalari. Iplardagi nuqsonlar.

**5-mavzu. Gazlamalarning umumiy va asosiy xususiyatlari.** Gazlamalarning tuzilishi va tarkibi. Gazlamalarni pardoqlash. To'quvchilik o'rilishlari. Gazlamalarning o'lcham xarakteristikalari. Gazlamalarning fizik, mexanik va texnologik xossalari.

Gazlamalarning fizik, mexanik va texnologik xossalari.

**6-mavzu. Gazlamalar assortimenti.**

Paxta tolali, zig'ir tolali, jun, ipak tolali gazlamalar assortimenti.

**7-mavzu. Trikotaj matolari haqida umumiy ma'lumotlar. Trikotaj matolarning olinishi.**

Trikotaj matolar tuzilishi, xossalari va assortimenti. Trikotaj matolarning asosiy ko'rsatkichlari, trikotaj o'rilishlar.

**8-mavzu. Noto'qima matolar haqida umumiy ma'lumotlar.**

Noto'qima matolar tasnifi, assortimenti, xossalari.

**9-mavzu. Biriktiruvchi materiallar haqida umumiy ma'lumotlar.**

Tikuvchilik iplari. Yelim materiallar.

**10-mavzu. Issiq tutuvchi materiallar haqida umumiy ma'lumotlar.**

Tabiiy va sun'iy mo'ynalar. Vatin, sintepon, parolon.

### **III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.**

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Tabiiy tolalar tasnifi va ularning turlarini o'rganish.
2. Kimyoviy tolalar tasnifi, ularning turlarini o'rganish.
3. Kalava iplar va ularning xossalarini, ularda uchraydigan nuqsonlarni o'rganish.
4. To'quvchilik o'rilishlari, ularning tuzilishi hamda sxematik ko'rinishlarni aniqlash.
5. Gazlamalarning o'ngi, teskarisi, tanda va arqoq iplarini aniqlashni o'rganish (oddiy (silliq), mayda gulli orilish, murakkab o'rilish, yirik gulli o'rilish).
6. Gazlamalarning o'ngi, teskarisi, tanda va arqoq iplarini aniqlashni o'rganish
7. Oddiy (silliq), mayda gulli orilish, murakkab o'rilish, yirik gulli o'rilishlarni o'rganish.
8. Gazlamalarning tolaviy tarkibini, kalava ip turi va pardoqlash usullarini belgilashni o'rganish.
9. Gazlamalarning mexanik xossalarini o'rganish.
10. Gazlamalarning fizik xossalarini o'rganish.
11. Gazlamalarning texnologik xossalarini o'rganish.
12. Gazlamalar va tikuvchilik buyumlarining sifatini aniqlashni o'rganish.
13. Tabiiy tolali gazlamalar assortimentini preyskurant bo'yicha guruhlashni o'rganish.
14. Kimyoviy tolali gazlamalar assortimentini preyskurant bo'yicha guruhlash.

15. Noto'qima materiallarning tolaviy tarkibi, xossalari va turlarini aniqlashni o'rganish.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akadem guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda pedagog va axborot texnologiyalari qo'llanishi maqsadga muvofiq.

#### **IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustakil ishlar quyidagi turlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi:

- dokladlar tayyorlash;
- glossariy tuzish;
- individual va guruxiy ukuv loyixasi;
- keys-topshiriqlarini bajarish;
- axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash
- manbalar bilan ishlash;
- chizma-tasviriy modellar (intellekt-kart, freym, mantiqiy graf va x.k.) yaratish;
- darslarning metodik ishlanmalarini tayyorlash;
- darsdan tashkari mashgulotlar ishlanmalarini tayyorlash;

ta'lim yo'nalishi(mutaxassislik)ning xususiyatidan kelib chikkan holda mustaqil ishlarning boshqa turlaridan foydalanish mumkin.

#### **Tavsiya etiladigan mustaqil ta'limning mavzulari:**

1. To'qimachilik tolalari haqida umumiy ma'lumot.
2. Tolalarning tasniflanishi.
3. Tabiiy tolalar haqida umumiy ma'lumot.
4. Paxta tolasining tuzilishi, olinishi va xossalari.
5. Zig'ir tolasining tuzilishi, olinishi va xossalari.
- 6 Jun tolasining tuzilishi, olinishi va xossalari.
- 7 Tabiiy ipak tolasining tuzilishi, olinishi va xossalari.
8. Kimyoviy tolalar haqida umumiy ma'lumot.
9. Sun'iy tolalar haqida umumiy ma'lumot.
10. Sintetik tolalar haqida umumiy ma'lumot.
11. Kimyoviy tolalar xossalari.
10. Kalava iplar haqida umumiy ma'lumot.
11. Kalava iplarning xossalari.
12. Kalava iplarda uchraydigan nuqsonlarni o'rganish.
13. Tanda va arqoq iplarni tayyorlash.
14. To'quv dastgohining tuzilishi va ishlash prinsipi.
15. To'quvchilik o'rinishlari.
16. Gazlamalarning o'ngi, teskarisini aniqlash.

17. Gazlamalarning tanda va arqoq iplarini aniqlash
18. Gazlamalarning tolaviy tarkibi.
19. Tabiiy tolali gazlamalar assortimenti.
20. Kimyoviy tolali gazlamalar assortimenti.
21. Gazlamalarning fizik xossalari.
22. Gazlamalarning mexanik xossalari.
23. Gazlamalarning texnologik xossalari.
24. Gazlamalarni pardoqlash.
25. Trikotaj matolar.
26. Noto'qima materiallar.
27. Bezak materiallar.
28. Issiq tutuvchi materiallar.
29. Paxta va undan olinadigan mahsulotlar assortimenti
30. Gazlamalarning yangi assortimenti
31. To'qimachilik va yengil sanoatda ishlatiladigan yangi tolalar assortimenti.

#### **V. Ta'lim natijalari / (shakllanadigan kompetentsiyalar)**

##### **Talaba bilishi kerak:**

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- gazlamashunoslikning asosiy tushunchalari va mohiyati gazlamalarning o'ziga xos xususiyatlari; tolalarning fizik, kimyoviy xossalari haqida *tasavvur va bilimga ega bo'lishi*;
- tikuvchilik buyumlari, to'qimachilik iplari, trikotaj to'qimalarning turlari va xususiyatlari, ularning xossalari, gazlamashunoslik fanining mazmuni va metodlari *ko'nikmalariga ega bo'lishi*;
- tikuvchilik buyumlariga qo'yiladigan talablar, tolalar tarkibi, olinishi, tuzilishi va xossalari, to'qimachilik iplarining tuzilishi, tikuvchilik materiallarining sifat ko'rsatkichlari, ularni baholash usullari, tikuvchilik materiallarini tanlash va tasniflashni *bilishi, malaka hosil qilishi va amalda qo'llay olish malakasiga ega bo'lishi kerak.*

#### **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**

- ko'rgazmali-ko'rsatmali vositalar;
- interfaol keys-stadilar;
- plakatlar, chizmalar, maketlar, slaydlar va videoroliklar.

#### **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.

## VIII. Asosiy adabiyotlar

1. X. Z. Ismatullayeva va boshqalar. Maxsus materialshunoslik. Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. T.: "Iqtisod-moliya" – 2007.

### Qo'shimcha adabiyotlar:

2. Mirziyoev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent: "O'zbekiston", 2017. 488 b.

3. Mirziyoev Sh. M. Yangi O'zbekiston. strategiyasi.-Toshkent, 2021. 458 b.

4. T.A. Ochilov, N.G. Abbasova, F.J. Abdullina, Q.I. Abulniyozov. Gazlamashunoslik. KHK uchun darslik. T.: "Cho'lpon" – 2003.

5. U.M. Matmusayev. Poya po'stlog'idan olinuvchi tolalar. Toshkent. 1992 y.-54b.

6. N.G. Abbasova, A.Z. Abdullayev "Tabiiy ipak chiqarish".Toshkent. 1992 y.-35 b.

7. Sh. Isxakov. "To'qimachilik tolalari". Toshkent.1988 y. 134-167 b.

8. P.T. Bukayev. "Ip gazlama ishlab chiqarishning umumiy texnologiyasi". Toshkent. 1989 y. -13 b.

G.K. Xasanboyeva. O.I. Karimova "Kiyim modelini ishlash va konstruksiyasini tayyorlash" Toshkent "O'qituvchi" 1990 y. - 162 b.

9. E. P. Malseva. Tikuvchilik materialshunosligi. Hunar-texnika bilim yurtlari uchun darslik. T.: "O'qituvchi" – 1986.

10. Н.М. Толкунова, Е.Н. Чернов, И.Е. Гончарова "Испытание текстильных материалов". (1,2-ч.). Москва. Легпромбытиздат. 1993 й. – 74 б.

11. Б.А. Бузов и др. Лабораторный практикум по материаловедению швейного производства. Москва. Легпромбытиздат, 1991 й. – 117 б

12. Г.Н. Кукин, А.Х. Соловев. Текстильное материаловедение. 1-3 кism. 1992 й. - 54 б.

### Axborot manbalari (saytlar):

13. [www.osinka.ru](http://www.osinka.ru)

12. [www.legprom.ru](http://www.legprom.ru)

13. [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)

14. [www.TDPI.uz](http://www.TDPI.uz)

**Mazkur o'quv dasturi Termiz iqtisodiyot va servis universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.**

**Fan/modul uchun mas'ullar:**

Eshkarayev Ulugbek Choriyevich-Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
"Pedagogika va psixologiya" kafedrasida dotsenti.

**Taqrizchilar:**

1. Pedagogika fanlari doktori (Ds), TerDU professori. M.X.Shomirzayev
2. Texnika fanlari doktori (Ds), TMTI prorektori, dotsent M.Q.O'rozov